

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/31.12.2020.YU.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

YUSUPOV O‘KTAMBOY ABSAMADOVICH

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING FUQAROLIK-HUQUQIY
MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq.

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Oglavleniye avtoreferata dissertasii doktora filosofii (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the PhD (PhD)

Yusupov O'ktamboy Absamadovich

Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy
muammolari.....3

Yusupov Uktamboy Absamadovich

Гражданско-правовые проблемы противодействие
коррупции.....23

Yusupov Uktamboy Absamadovich

Civil-legal problems of combating
corruption.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/31.12.2020.YU.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

YUSUPOV O‘KTAMBOY ABSAMADOVICH

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING FUQAROLIK-HUQUQIY
MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq.

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu1536 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.proacademy.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ashurova Nargiza A’zamovna

yuridik fanlar doktori, professor

Ahmadjonov Baxtiyorjon Usmonjonov

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi DSc.31/31.12.2020.YU.67.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabrdagi soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. (998) 71-202-04-96, e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (72-raqami bilan ro‘yxatga olingan). ((Manzil: 100097, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. (998) 71-202-04-96, e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 08-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 08-noyabrdagi 36-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Aminjonova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Sh.I.Shayzakov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

M.Sh.Choriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash barcha huquq sohalarida belgilangan usul va vositalardan uyg'un va kompleks foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy-huquqiy usullar bilan birga xususiy-huquqiy usullardan foydalanish, bunda korrupsiyaviy bitimlarni haqiqiy emas deb topish, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, zararni qoplash, shartnomaga korrupsiyaga qarshi izohni belgilashning ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish borasida dunyo davlatlari holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "G'arbiy Yevropa va Yevropa Ittifoqi bu borada eng yuqori ko'rsatkichlarga ega mintaqaga bo'lib qolmoqda, biroq 2024-yilda ularning o'rtacha mintaqaviy bahosi 100 dan 65 ga tushdi, chunki tizimli nazorat va muvozanatlar susayib, siyosiy yaxlitlik buzilmoqda. Ayrim davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish yaxshilanishi kuzatilayotganiga qaramay, Sahroi Kabirdan janubda joylashgan Afrika 33 bilan eng past o'rtacha bahoni saqlab qolmoqda, demokratiya va qonun ustuvorligi bosim ostida qolmoqda. Dunyoning boshqa hududlarida ham stagnatsiya saqlanib qolmoqda, barcha boshqa mintaqalarda o'rtacha ko'rsatkich 50 dan past. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda qonun ustuvorligining samarasizligi, avj olayotgan avtoritarizm va tizimli korrupsiya muammolariga duch kelmoqda"¹. Shunga qaramasdan, korrupsiya holatlarida shaxslarning huquq va manfaatlariga yetkazilgan zararlarni qoplash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga turli to'siqlarning yuzaga kelishi hamda raqobat muhitining izdan chiqish holatlari kuchayib bormoqda. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy usullarini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashning xususiy-huquqiy vositalari sifatida korrupsiyaviy bitimni haqiqiy emas deb topish restitusiya bilan birga bitim narsasini davlat daromadiga o'tkazish, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish (kondiksiya), zararni qoplash, shartnomada korrupsiyaga qarshi bandni kiritish kabi usul va vositalar qo'llaniladi. Ayni paytda dunyoda "korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun delikt (fuqarolik-huquqiy) javobgarlik", "komplayens nazorat va fuqarolik-huquqiy o'zini o'zi tartibga solish mexanizmlari" (AQSH, Buyuk Britaniya), "Halollik tamoyili va uning korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyati" (Germaniya, Fransiya), "Korrupsionerlarga qarshi xususiy da'volar instituti (Private Enforcement of Anti-Corruption Laws)", "whistleblower protection" (ya'ni, korrupsiya haqida xabar beruvchilarni himoya qilish)" (AQSH) kabi xususiy-huquqiy modellar amal qiladi. Shu bilan birga xorijiy mamlakatlarda "korrupsiyaga qarshi kompleans va korporativ boshqaruv", "korrupsiyaga yo'l qo'yg'nlarga nisbatan restitusiya va musodarani qo'llash", "shartnomaviy munosabatlarda xavflarni taqsimlashda korrupsiyaning ta'siri", "korrupsiyaga yo'l qo'yg'nlarga nisbatan aralash javobgarlikni (jinoiy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy) qo'llash" kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

¹ Индекс восприятия коррупции. Уровень восприятия коррупции (2025, ИНДЕКС) // <https://www.worldeconomics.com/Indicator-Data/Corruption/Corruption-Perceptions-Index.aspx>

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari tizimi va uni qo'llashning o'ziga xos mexanizmlari yaratilgan. Bunda korrupsiyaga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari masalasi fuqarolik qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Biroq, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali fuqarolik-huquqiy usullari (korrupsiyaga yo'l qo'yib olingan mol-mulkni asossiz orttirilgan boylik deb topish, mansabdor shaxslarning daromadlar deklaratsiyasi asosida mol-mulkning qonuniyligini isbotlash majburiyati, korporativ munosabatlarda affilanganlik va manfaatlar to'qnashuvi, shartnomada korrupsiyaga oid bandni kiritish) yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shuningdek, davlat xaridlari, benefisiar mulkdorlar, mansabdor shaxslar tomonidan korrupsiyaga yo'l qo'yib qabul qilingan qarorlarning haqiqiy emasligi oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplashning fuqarolik-huquqiy masalalarini tadqiq etish dolzarb tus kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994), Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi (2017), "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi (2019), "Davlat xaridlari to'g'risida"gi (2021), "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi (2022), "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi (2024) qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi PQ-5177-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 14-sentabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-son farmoni va 2019-yil 5-apreldagi 5464-son "O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy muammolari milliy sivilistikada keng o'rganilmagan bo'lsa-da, fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari nuqtai nazaridan H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, N.A.Kuldashev, M.X.Baratov, A.A.Muxammadiyev, J.I.Boboyev, S.F.Inoyatova, U.P.Xolmirzayev, B.B.Xudaybergenov, O.S.Odinayev, M.Sh.Choriyevlarning asarlarida yoritilgan. Bevosita korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari N.F.Imomov tomonidan monografik tarzda tadqiq etilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning ayrim fuqarolik-huquqiy masalalari D.B.Raximov tomonidan o'rganilgan. Qonunchilik talablariga zid bo'lgan bitimlarning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari Q.A.Musayevning tadqiqotlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy masalalari V.D.Andrianov, L.Ch.Sidikova, A.Ye.Chechetin, S.S.Jelonkin,

I.I.Yaskiv, Ye.V.Nevmerjisikiy, I.Y.Kabanova, K.G.Tokareva, T.S.Korobeynikova, I.S.Alakshina, T.Y.Xabriyeva, L.K.Fazliyeva, O.S.Smorodina, O.Ye.Xamazinalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda esa korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik huquqiy masalalari J.Nye, O.Meyer, A.G.Murphy, E.S.Burger, M.S.Holland, C.Takoff, L.Trautman, J.Kimbell, F.Vinckelar tomonidan o'rganilgan.

Biroq, yuqorida nomlari sanab o'tilgan olimlarning tadqiqotlarida bevosita korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari tizimi, ularni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, korrupsiyaga qarshi kurashishda qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy choralar milliy qonunchilik nuqtai nazaridan kompleks tarzda tadqiq qilinmaganligi yana bir bor ushbu mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy tusini ilmiy-nazariy tahlil qilish;

korrupsiyadan ogohlantiruvchi fuqarolik-huquqiy choralar tizimini tadqiq qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish fuqarolik-huquqiy asoslarining rivojlanish genezisini yoritish;

korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari tushunchasi va tasniflanishini ochib berish;

fuqarolik-huquqiy vositalarning korrupsiyaga qarshi kurashishning yuridik texnologiyalarida tutgan o'rnini aniqlash;

korrupsiyaviy bitim haqiqiy emasligining fuqarolik-huquqiy oqibatlarini tadqiq etish;

xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyotida korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy jihatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish;

shartnomada korrupsiyaga qarshi izohni ifodalanishining fuqarolik-huquqiy muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash;

korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy choralarini takomillashtirish istiqbollari belgilash.

Tadqiqotning obyekti korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va

huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mobaynida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sosiologik so'rov, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash, kuzatuv, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yib tuzilgan bitim nizoli bitim sifatida sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi asoslangan;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yib tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilganda bunday bitim tuzilganligi natijasida olingan foyda bitim bo'yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to'g'risida talab qo'yilmagan holda, sud tartibida davlat daromadiga o'tkazilishi asoslantirilgan;

korruptsiyaga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilganda bunday bitim oqibatida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar aybdor shaxslar tomonidan sud tartibida qoplanishi asoslangan;

korruptsiyaga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimni ijro etish bilan bog'liq xarajatlarning o'zni manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan shaxsning hisobidan qoplanishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korruptsiyaga qarshi kurashish bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash, zararni qoplash, shartnomaga korruptsiyaga qarshi izohni belgilash hamda korruptsiyaga yo'l qo'yib asossiz olingan mol-mulkni qaytarish usullari samarali ekanligi asoslangan;

korruptsiyaga qarshi kurashishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan holda qabul qilingan qarorlarning haqiqiy emas topilishi oqibatlarini bartaraf etishga oid qonunchilikda aniq normalarni shakllantirishga oid takliflar ishlab chiqilgan;

korruptsiyaga yo'l qo'yib bitim tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari qo'llashga oid qoidalarni qonunchilikka kiritish lozimligi asoslab berilgan;

yuridik shaxslarga nisbatan korporativ munosabatlarda korruptsiyaga qarshi kurashishda ta'sis hujjatlarida, uchinchi shaxslar bilan tuziladigan shartnomalarda tegishli izohlar, bandlarni kiritishning majburiy tartibini belgilash zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, huquqshunoslar va aholi o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma va anketa shakllariga asoslangan, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatidan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy hamda xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ilmiy tadqiqot faoliyatida, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash

amaliyotida foydalanishda, tegishli protsessual qonunchilik normalarini sharhlashda ko‘rinadi. Amaliy ahamiyati fuqarolik huquqi, jumladan, bitimlar, asossiz orttirilgan boylarni qaytarish mavzularida tadqiqot ishlarini olib borishda, “Fuqarolik huquqi”, “Shartnoma huquqi” va “Biznes huquqi” kabi fanlarni o‘qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda va boshqa huquqiy fanlar yuzasidan ma’ruza matnlarida, o‘quv-uslubiy ta’minotni ishlab chiqish jarayonida qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati qarorlarini qabul qilishda foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy muammolari” tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yib tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topilishiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonunining 26-moddasi birinchi qismini ishlab chiqishda (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasining 2025-yil 8-iyuldagi 04/2-11-32-sonli dalolatnomasi) foydalanilgan. Mazkur takliflarning manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yib tuzilgan bitimlar nizoli bitim sifatida faqat sud tomonidan haqiqiy emas deb topish tartibiga aniqlik kiritgan;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim bo‘yicha olingan foydani qaytarib berish to‘g‘risida talab qo‘yilmaganida bunday foyda sud tartibida davlat daromadiga o‘tkazilishi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonunining 26-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasining 2025-yil 8-iyuldagi 04/2-11-32-sonli dalolatnomasi) foydalanilgan. Ushbu taklifning joriy etilishi manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yib tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo‘llash mexanizmini belgilashga xizmat qilgan;

korrupsiyaga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni aybdor shaxslar tomonidan sud tartibida qoplanishiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonunining 30-moddasi 2-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 114-moddasi to‘rtinchi qismiga kiritilgan qo‘shimchani ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 17-fevraldagi 27/2-29-25-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif korrupsiyaviy bitimlardan jabrlanganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning ishonchli tizimini yaratishga hissa qo‘shgan;

korrupsiyaga yo‘l qo‘ygan holda tuzilgan bitimni ijro etish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan shaxsning hisobidan qoplanishiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonunining 30-moddasi 2-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 114-moddasi uchinchi qismiga kiritilgan qo‘shimchani ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 17-fevraldagi 27/2-29-25-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif korrupsiyaviy bitimlar bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash manbasini aniqlashtirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va ilmiy seminarlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, ilmiy anjumanlarda 6 ta, milliy jurnallarda 4 ta va xalqaro jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya tuzilishi kirish, 6 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Korrupsiyaga qarshi kurash fuqarolik-huquqiy asoslarining umumiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy tusi: ilmiy-nazariy tahlili, korrupsiyadan ogohlantiruvchi fuqarolik-huquqiy choralar tizimi, korrupsiyaga qarshi kurash fuqarolik-huquqiy asoslarining rivojlanish genezisi kabi masalalar tahlil qilingan.

Korrupsiya huquqning barcha sohalari tomonidan tadqiq etiladigan huquqbuzarlik bo‘lib, fuqarolik huquqida ham o‘ziga xos salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi harakat sifatida baholanadi. Dissertatsiyaning huquqiy nuqtai nazaridan korrupsiya tushunchasining talqini turli olimlar (P.Panchenko, A.N.Volobuyev, A.Gurov, O.Kojushko va Ye.Temnov)ning fikrlari asosida o‘rganiladi va “korrupsiya – bu davlat xizmatchilarining noqonuniy daromad va moddiy imtiyozlar olish maqsadida lavozim vakolatlarini suiiste‘mol qilish bilan bog‘liq faoliyat” degan fikr ilgari suriladi. Dunyo davlatlarining qonunchiligida, asosan, korrupsiya tushunchasini alohida huquqbuzarliklar tarkibi orqali ochib berish tendensiyasi mavjud. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar qonunchiligida korrupsiya tushunchasini kengaytirishga moyillik sezilmoqda. Bu tushuncha poraxo‘rlikdan tashqari, tanish-bilishchilik (nepotizm), proteksionizm va davlat mablag‘larini

noqonuniy o'zlashtirishning ko'plab shakllarini ham o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyada Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi asosida milliy qonunchilikda korrupsiyaviy harakatlar va ularga qarshi kurash choralari borasida mushohada yuritiladi. Bunda bitimni haqiqiy emas deb topish, zararni qoplash kabi choralar mavjudligi asoslantiriladi. Qolaversa, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning yana bir sharti – bu shartnomada korrupsiyaga qarshi kelishuvning mavjudligi hisoblanadi. Muallifning fikricha, korrupsiyaga qarshi kurashni fuqarolik-huquqiy shartnomalarni yuridik texnika nuqtai nazaridan tayyorlash va tahlil qilish choralari va vositalarining birlashgan kompleksida ko'rib chiqish mumkin.

Jinoiy va fuqarolik huquqi normalari o'rtasidagi, shu jumladan, iqtisodiy munosabatlarni (masalan, bankrotlik, noqonuniy tadbirkorlik va bank faoliyati va boshqa munosabatlar) tartibga solish sohasidagi kolliziya korrupsiyani bartaraf etish imkoniyati uchun muhim sabab va shartlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi shart kiritish yoki shartnoma taraflarining korrupsiyaga qarshi to'g'ri xulq-atvorga taalluqli huquq va majburiyatlarini ko'rsatish shartnomani tuzuvchi tomonlarning erkinligini cheklamasdan, majburiy bo'lishi lozim. Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqib, FKning "Shartnoma tushunchasi" nomli 353-moddasiga korrupsiyaga qarshi kelishuvni kiritish taklifi ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, dissertant tomonidan shartnoma taraflarining tegishli korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarga oid huquq va majburiyatlarini belgilashni hamda FKga "Shartnoma va qonun" nomli 353.1-moddani kiritish g'oyasi asoslantiriladi va uning matni ham taklif qilinadi.

Muallifning fikricha, korrupsiyaga qarshi kelishuvdan foydalanish va shartnoma tomonlarining huquq va majburiyatlariga korrupsiyaga qarshi qonunchilikni bajarishga oid majburiy qoidalarni kiritish, davlat-xususiy va munitsipal-xususiy sherikliklar faoliyatida, shuningdek, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyada korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usullarining rivojlanishi genezisi doirasida qadimgi Rim huquqidagi korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan qo'llaniladigan choralar tadqiq qilinib, lotincha **corrumpo** fe'lidani kelib chiqqan bo'lib, "zarar yetkazish", "chirish" va, majoziy ma'noda, "buzish" degan ma'nolarni anglatishligi, keyinchalik crimen pecuniarum repetundarum² darajasida baholanganligi hamda korrupsiya Mark Tulliy Siseron tomonidan "qudratga ega bo'lgan ochko'zlik"³ deya baholanganligi yoritiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik-huquqiy vositalarni qo'llashning zarurati xususida AQSHlik mutaxassis doktor Olaf Meyer o'zining "The Civil Law Consequences of Corruption" nomli maqolasida quyidagilarni bildiradi: AQSHda korrupsiya bilan bog'liq munosabatlarda jinoyat huquqiy sohasi qonunchiligi hanuzgacha asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi, biroq shunga qaramasdan jinoyat

² Рим амалдорининг ўзини Рим фуқаролари ва уларнинг иттифоқчиларидан пул талаб қилишга йўл қўйган жинояти, бу пулларни суд орқали қайтариб олиш мумкин бўлган.

³ Александровская С.В. Антикоррупционная концепция в праве древнеримской республики (V-I вв. до н.э.): автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Краснодар: 2004. – 16 с.

huquqining tiyib turuvchi samarasi o'z chegarasiga ega va faqat kam sonli holatlardagina qo'llaniladi. Ayni paytda korrupsiyaga qarshi kurash bevosita jabrlanuvchilarni himoya qilishga fuqarolik da'volarini taqdim etish yo'li bilan alohida e'tibor berishni talab etadi. Meyerning fikricha, bu holat pora vositasida tuzilgan shartnoma muddati amal qilishidan boshlash jabrlanuvchi tomon korrupsiya natijasida yetkazilgan zararni undirish va boy berilgan foyda qoplanishini talab qilishga haqli⁴. Tadqiqot ishida AQSH Kongressi tomonidan 1977-yilda qabul qilingan "Tashqi iqtisodiy faoliyatda korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi (Foreign Corrupt Practices Act) qonuni tahlil qilinadi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Barcha zamonlarda ham korrupsiya davlatdagi tartib va intizomga qarshi harakat sifatida baholangan. Islom dinida esa pora olish yoki berish eng og'ir gunohlardan biri sifatida baholangan. Umuman olganda, uzoq yillar islom dini amal qilgan O'zbekiston hududida korrupsiyaga qarshi kurashish har bir xonlik davrida davlat siyosatining asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Lekin shunga qaramasdan, bu ham xonning yaqinlari va boshqa shaxslardan sovg'a tariqasida olgan mol-mulklari masalasi va uni pora sifatida baholash masalasi bevosita uning shaxsiy ishi bo'lib, uni nazorat qiluvchi tuzilma mavjud bo'lmagan. Shuningdek, dissertatsiyada O'zbekistonning mustaqillik davrlarida va Yangi O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy masalalari tadqiq qilingan.

Dissertatsiyaning **"Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari tizimi"** deb nomlangan ikkinchi bobida korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari tushunchasi va tasniflanishi, fuqarolik-huquqiy vositalarning korrupsiyaga qarshi kurashishning yuridik texnologiyalarida tutgan o'rni, korrupsiyaviy bitim haqiqiy emasligining fuqarolik-huquqiy oqibatlarini o'rganilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashda ham fuqarolik huquqi o'ziga xos usul va vositalardan foydalanadi va shu sababli bu holatda fuqarolik huquqining navbatdagi tayinlanish maqsadi muayyan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni cheklash, ularni oldini olish va ularga qarshi kurash yuzaga keladi. Dissertatsiyada g'ayriqonuniy harakat va uning oqibati yuzasidan huquqshunos olimlar (O.Oqyulov, N.A.Kuldashev, Ye.O.Blinova, I.N.Pustovalova, A.P.Sergeyev, J.I.Babayev, V.P.Gribanov)ning fikrlari o'rganilib, fuqarolik-huquqiy himoya usullarining turlari tadqiq etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik-huquqiy usul va vositalar an'anaviy usul hisoblangan bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlarini qo'llashdan chetga chiqadi hamda g'ayriqonuniy xatti-harakatdan ogohlantirish, oldini olish hamda taqiqlash kabi funksiyalarni ham bajaradi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashishdagi fuqarolik-huquqiy usul va vositalar tizimi o'ziga xos rang-baranglik hosil qiladi. Bunda korrupsiyaviy harakatga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan faoliyatni to'xtatish, mansabdor shaxslarga hadya berishda taqiqlarni o'rnatish, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, bitimlarni haqiqiy emasligi, korrupsiyaviy xatti-harakat oqibatida yetkazilgan

⁴ Meyer O. The Civil Law Consequences of Corruption / Olaf Meyer // Broschert, 2009. – C. 280.

zararlarni qoplash kabi turli usul va vositalar jamlanmasi qo'llaniladi.

Ishda FKda belgilangan haqiqiy bo'lmagan bitimlarning huquqiy oqibatlari korrupsiyaviy huquqbuzarlik bo'yicha olinganni qaytarishning to'laqonli mexanizmini yaratishi va shu asosda FKning 9-bobi 2-paragrafini ("Bitimlarning haqiqiy emasligi") quyidagi tahrirdagi "Korrupsiyaviy bitimning haqiqiy emasligi" 116.1-modda bilan to'ldirish zarurligi asoslantirilgan.

Hozirgi zamonda dolzarb bo'lgan ijtimoiy muammolardan biri korrupsiyaga qarshi kurashishdir. Uni hal etish turli yuridik texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi, ular yo'nalishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini kamaytirish texnologiyalari, bir tomondan, va korrupsiyani ommaviy ijtimoiy-nomaqbul hodisa sifatida keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish texnologiyalari, ikkinchi tomondan. Korrupsiyaga qarshi kurashishda qo'llaniladigan usul va vositalarning umumiy ma'nosidan kelib chiqadiki, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning roli yuridik javobgarlikning boshqa turlari bo'lgan jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlikka kabi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyada Rossiya Federatsiyasi FKning 235-moddasi ("Mulk huquqining bekor asoslari")ga 8-bandi tahlil qilinib, O'zbekiston FKga ham "mulk huquqining bekor bo'lish asoslari" nomli 197-moddasiga ham shu mazmundagi o'zgartirish kiritish taklifi ilgari suriladi. Shuningdek ishda amalga oshirilgan tahlillardan hamda javobgarlikning muqarrarligi aniq huquqiy normalar va qoidalarda ifodalanishi zarurligidan kelib chiqib, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunni "Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun jismoniy shaxslarning javobgarligi" nomli 26¹-modda bilan to'ldirish g'oyasi bildiriladi va ushbu moddaning matni ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, korrupsiyaviy harakatlar uchun yuridik shaxslarning mas'uliyatini oshirish maqsadida ushbu qonunga "Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi" nomli 26²-moddani kiritish zarurligi asoslantiriladi va ushbu moddaning tahriri taklif etiladi.

Fuqarolik-huquqiy mexanizmlarda korrupsiyaga qarshi kurashda blokcheyn texnologiyalarini qo'llash huquqiy jihatdan muhim ma'lumotlarning shaffofligi, ishonchliligi va o'zgarmasligini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlarni ochishidan kelib chiqib, ishda korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usul va vositalarini qo'llashda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy jihatlari tadqiq etiladi.

Dissertatsiyada korrupsiyaviy bitimning haqiqiy emasligi masalasi ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Korrupsiyaviy bitimning haqiqiy emaslik asoslari va uning oqibatlari bo'yicha huquqshunos olimlar (H.Rahmonqulov, I.B.Zokirov Q.A.Musayev, M.Y.Usmonova M.V.Krotov)ning qarashlari o'rganilib, korrupsiyaviy bitim tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emasligi, shu bois u o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan, ya'ni yaroqsiz hisoblanishi asoslantiriladi. Zero, yaroqsiz bitimning xususiyati shundaki, u tuzilgan paytdanoq huquq normasiga ko'ra haqiqiy emas hisoblanadi (quae contra ius fiunt debent utique pro infectis haberi – qonunga zid ravishda qilingan amallar haqiqiy emas, deb hisoblanishi lozim).

Muallifning fikricha, korrupsiyaviy bitimlarni haqiqiy emas deb topishning fuqarolik-huquqiy mexanizmini qo'llash (ushbu bitimlarning huquqiy oqibatlari bilan birga) zamonaviy huquqshunoslikda korrupsiyaga faqat jinoyat-huquqiy yoki ma'muriy-huquqiy hodisa sifatida qarashga bo'lgan ma'lum bir cheklovlarni yengib o'tishga imkon beradi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurash usullari arsenalini yetarlicha samarali bo'lgan fuqarolik-huquqiy usullar bilan boyitadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usullarning xorijiy mamlakatlar tajribasi va takomillashtirish masalalari”** deb nomlanib, unda xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyotida korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy jihatlari, shartnomada korrupsiyaga qarshi izohni ifodalanishining fuqarolik-huquqiy muammolari, korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy choralari takomillashtirish istiqbollariga doir masalalar o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning ommaviy-huquqiy va jinoiy-huquqiy vositalari bilan birga, xususiy-huquqiy vositalar tizimi ham keng qo'llaniladi. Bunda xususiy sektor uchun korrupsiyaga qarshi kurash nuqtai nazaridan, korrupsiyaga qarshi kurashning ham tizimli, ham ichki korporativ vositalari va usullari sifatida quyidagilar qo'llaniladi: ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik, tadbirkorlar (shu jumladan, jamoaviy) manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish; korrupsiya mojarolariga aloqador kompaniyalar bilan aloqa qilishdan bosh tortish; davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi kompaniyalarning tarkibiy bo'linmalarini yaratish; korrupsiyaviy xatti-harakatlarni rad etishga asoslangan kompaniya madaniyatini rivojlantirish; kompaniyada korrupsiyaga qarshi choralar samaradorligining mustaqil auditini o'tkazish va boshqalar.

Tadqiqot ishida keltirilishicha, korrupsiyaga qarshi kurashning sof repressiv yondashuv samarasiz, chunki, birinchidan, u sabablarga emas, balki oqibatlarga qarshi kurashishga qaratilgan. “Urush strategiyasi” odatda “jangchilar”ning o'zlari va korrupsionerlar tomonidan jiddiy qarshilik yoki sabotajni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, Italiyada “Toza qo'llar” kampaniyasi doirasida prokurorlarning xatti-harakatlari siyosatchilar orasida tezda qarshilikka uchradi, bu esa keyinchalik sobiq amaldorning faoliyatini to'xtatishga olib keldi. Ruminiyada 2002-yilda tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi repressiv organ o'z mustaqilligini yo'qotdi va Bosh prokuratura tarkibiga kirdi. Xuddi shu holat Belgiyadagi korrupsiyaga qarshi kurash agentligi bilan ham sodir bo'ldi. Ispaniya qonunchiligida yuridik mezonlar bilan bir qatorda halollik, xolislik, mustaqillik, ochiqlik, jamoat manfaatlariga xizmat qilish kabi axloqiy mezonlar ham inobatga olinadi (1984-yil 2-avgustda qabul qilingan № 30 “Fuqarolik xizmati islohot choralari to'g'risida”gi qonun). Portugaliya qonunchiligida korrupsiyaning kvalifikatsiyalovchi belgilari orasida nafaqat moddiy (jismoniy shakldagi), balki nomoddiy imtiyoz va manfaatlarni olish ham qayd etilgan (Jinoyat kodeksining 335-moddasi, 1987-yilgi № 34 Qonunning 16 va 17-moddalari va boshqalar).

Dissertatsiyada korrupsiyaga qarshi izoh yoki pisanda yuzasidan olimlar (R.S.Kashanskiy, V.M.Koryakin, A.V.Pavlov, R.V.Ivanov, V.A.Trubisin)ning fikrlari ham bir qator xorijiy mamlakatlar (Buyuk Britaniya, AQSH) tajribasi tahlil

qilinib, ichki qonunchilik fuqarolik-huquqiy shartnoma matniga korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi izohni kiritishning majburiy xususiyatini o'rnatish g'oyasi ilgari suriladi. Muallifning fikricha, korrupsiyaga qarshi izohdan foydalanish, agar uning shartlari tijorat sohasidagi poraxo'rlik yoki boshqa turdagi korrupsiyaviy buzilish natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, shartnomani bekor qilish imkoniyatini beradi, shuningdek, tashkilotga bunday huquqbuzarliklarda ishtirok etgan kontragent bilan munosabatlarni tezda to'xtatishga imkon beradi. Va nihoyat, u kontragentlar o'rtasidagi munosabatlarda muayyan sanksiyalarsiz buzolmaydigan xulq-atvor standartlarini shakllantirish va saqlashga yordam beradi.

Korrupsiyaga qarshi huquqbuzarliklarga qarshi fuqarolik-huquqiy mexanizm korrupsiyaviy bitimlarning haqiqiy emasligi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan normalar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Shuningdek, fuqarolik huquqi doktrinasini va fanida mavjud bo'lgan bir tomonlama shartnomadan voz kechish bilan bog'liq boy imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agar davlat organi yoki mansabdor shaxsning faoliyatini nazorat-taftish tadbirlari natijasida davlat uchun shartnomani bajarish iqtisodiy jihatdan manfaatsiz ekani aniqlansa, bir tomonlama voz kechish mexanizmi ishga tushishi zarur.

Tadqiqotda amalga oshirilgan tahlillar asosida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonunni "Korrupsiyaviy huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etish" nomli 5¹-bob bilan to'ldirish va unda "Noqonuniy olingan mol-mulk yoki noqonuniy taqdim etilgan xizmatlar qiymatini undirish (qaytarish)" nomli 29¹-modda hamda "Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar, hujjatlar va harakatlarning haqiqiy emasligi" nomli 29²-moddani kiritish takliflari asoslantiriladi.

XULOSA

"Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy muammolari" mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy tavsiya va xulosalar:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy tusi korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar va vositalarni tahlil qilishni nazarda tutadi. Korrupsiyaga qarshi kurash nuqtai nazaridan fuqarolik huquqi bitimlarning shaffofligini ta'minlash, fuqarolik muomalasining halol ishtirokchilari huquqlarini himoya qilish va korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashda muhim rol o'ynaydi.

2. Fuqarolik-huquqiy tartibga solishning asosiy xususiyatlari: fuqarolik-huquqiy munosabatlarda halollik tamoyilini qo'llash (FKning 1-moddasi); bitimlar va shartnomaviy munosabatlarning shaffofligini ta'minlash; korrupsiya maqsadlarida huquqni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi (FKning 10-moddasi); korrupsiyaga yo'l qo'yib tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash (FKning 114, 116-moddalari).

3. Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim: yuridik shaxslarning korrupsiyaviy javobgarligi konsepsiyasini rivojlantirish; korrupsiya bosimiga duch kelgan halol ishtirokchilarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish; davlat va biznes o‘rtasidagi hamkorlikning oshkoraligini ta‘minlash bo‘yicha huquqiy kafolatlarni kuchaytirish; bitim va shartnomalar tuzilishini nazorat qilish uchun raqamli texnologiyalar va blokcheynni joriy etish.

4. Dissertatsiyada amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida korrupsiyaga qarshi kurashda dunyoda quyidagi xususiy-huquqiy modellar amal qilishi aniqlandi: “korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun delikt (fuqarolik-huquqiy) javobgarlik”, “komplayens va fuqarolik-huquqiy o‘zini o‘zi tartibga solish mexanizmlari” (AQSH, Buyuk Britaniya), “Halollik tamoyili va uning korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyati” (Germaniya, Fransiya), “Korrupsionerlarga qarshi xususiy da‘volar instituti (Private Enforcement of Anti-Corruption Laws)”, “whistleblower protection” (ya‘ni, korrupsiya haqida xabar beruvchilarni himoya qilish)” (AQSH).

5. Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usullari fuqarolik huquqi mexanizmlaridan foydalangan holda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu usullar vijdonlilik, qonuniylik va fuqarolik muomalasining halol ishtirokchilari huquqlarini himoya qilish tamoyillariga asoslanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari tizimi quyidagilarni qamrab oladi: 1) korrupsiyaviy bitimlarni haqiqiy emas deb topish; 2) korrupsiya tufayli yetkazilgan zararni qoplash; 3) shartnomalarda korrupsiyaga qarshi izohni kiritish; 4) korporativ korrupsiyaga qarshi mexanizmlari; 5) raqobatni himoya qilish va noinsof raqobatga qarshi choralar; 6) yuridik shaxslarning korrupsiyaviy huquqbuzarliklari uchun javobgarligi.

6. Dissertatsiyada “korrupsiyaga qarshi izoh” tushunchasining mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi: korrupsiyaga qarshi izoh – bu fuqarolik-huquqiy shartnomalarga kiritiladigan maxsus shart bo‘lib, shartnomaviy majburiyatlarni bajarish jarayonida korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishga qaratiladi. Korrupsiyaga qarshi izoh tomonlar o‘rtasidagi majburiyatlarni halol va shaffof tarzda bajarish uchun huquqiy asos yaratadi, ularning korrupsiyaga qarshi majburiyatlarini tartibga soladi hamda korrupsiya bilan bog‘liq taqiqlarni buzganlik uchun huquqiy oqibatlarni belgilaydi. Korrupsiyaga qarshi izoh fuqarolik-huquqiy muomalaning turli sohalarida, jumladan, davlat xaridlari, xalqaro shartnomalar, investitsiya bitimlari va korporativ kelishuvlarda qo‘llaniladi. Ularning shartnomalarga kiritilishi tomonlar o‘rtasida shaffoflik, halollik va huquqiy aniqlikni ta‘minlashga yordam beradi.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy choralarining tarixiy rivojlanishi, bunda fuqarolik-huquqiy choralar va mexanizmlarning tadrijiy holati, bitimlarni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlari, bunda fuqarolik-huquqiy usullar: bitimni haqiqiy emas deb topish, davlat organi yoki mansabdor shaxsi tomonidan noqonuniy qabul qilingan qarorlarni sud tomonidan qo‘llanilmasligi, yetkazilgan zararni qoplash, burchni natura holida bajarish, ma‘naviy zararni undirish, muayyan miqdorda kompensatsiyani to‘lashni tatbiq etish korrupsiyaga qarshi kurashni har

tomonlarni amalga oshirish imkonini beradi.

